XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-sentabr VI-70-115-8-108-K/24 Oltinsoy tumani

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 9-avgustdagi VI-68-109-8-108-K/24-sonli “Oltinsoy tumani mahalliy budjetining 2024-yil II-chorak yakuniga koʻra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablagʻ ajratish toʻgʻrisida”gi qaroriga asosan ajratilgan va ishlatilmay qolgan mablagʻni tuman mahalliy byudjetiga qaytarib olish va ajratish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining “2023-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi 813-sonli Qonunining 13-moddasiga muvofiq, tuman budjetining 2024-yi II-chorak yakuniga koʻra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablagʻlaridan foydalanish boʻyicha tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi S.Saidaxmedovning takliflari xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasida eshitilibva koʻrib chiqilganligini inobatga olib, xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.Oʻzbekiston Respublikasining “2023-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi 813-sonli Qonunining 13-moddasiga muvofiq tuman budjetining 2024-yi II-chorak yakuniga koʻra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablagʻlaridan foydalanish boʻyicha tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi S.Saidaxmedovning taklifi Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi yigʻilishida eshitilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 9-avgustdagi VI-68-109-8-108-K/24-sonli qaroriga asosan, tuman hokimligiga tuman hokimligi ma’muriy binosining fasad qilish uchun zarur boʻladigan qurilish materiallari uchun ajratilgan 190 300 000 soʻmdan foydalanilmasdan turgan 90 300 000 soʻm mablagʻ tuman mahalliy budjetiga qaytarib olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi oʻrinbosari (B.Abdurayimov) hamda tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi (S.Saidaxmedov) bilan birgalikda:

Belgilangan tartibda;

- tuman hokimligiga O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida 165 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga sudga da’vo arizalarini kiritish hamda Davlat boji xarajatlari uchun 7 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga tuman hokimligining foydalanilmay turgan hududida zamonaviy issiqxona qurish maqsadida qurilish materiallari uchun 20 000 000 so‘m;

- tuman hokimligi orqali tuman Mudofaa ishlari bo‘limi binosiga Davlat ramzlari (stent) bilan ta’minlash va qo‘shimcha jihozlar, tashqi va ichki yozuvlar olish va o‘rnatish uchun 27 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga maxsus a’loqa xizmati uchun 5 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga “E-qaror” elektron platformasi xizmati uchun 6 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga (Ijro.gov.uz) Ijro intizomi platformasi uchun 8 000 000 so‘m;

- tuman hokimiyatiga Boysun tumanida o‘tkazilgan “Boysun bahori” xalqaro festivali tadbirlarida kashtachilik xizmati va kashta sotib olishdan yuzaga kelgan qarizdorlik uchun 7 800 000 so‘m;

-“Yoshlar daftari”ga kiritilgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga 25 000 000 so‘m mablag‘ ajratilsin.

4. Tuman mahalliy budjetining 2024-yi II-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishi to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borilsin.

5.“Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi MAMATMURATOV A’ZAMAT KARAMATOVICH